



## MAKTABDA NOGIRONLIGI BOR O‘QUVCHILARNING TA’LIM-TARBIYA OLISHI UCHUN QULAY SHART-SHAROIT YARATISH

*Xabibullayeva N.O.*

*Nizomiy nomidagi TDPU Maxsus pedagogika va inklyuziv ta’lim fakulteti Oligofrenopedagogika yo’nalishi 2-boshqich magistranti*

**Tayanch so’zlar:** ta’lim, tarbiya, inklyuziv, rivojlanish, xalqaro, takomillashuv, harakat.

**Ключевые слова:** образование, образование, инклюзивное, развитие, международное, совершенствование, движение.

**Key words:** education, upbringing, inclusive, development, improvement, action, international

**Рюме:**

Ushbu maqolada mamlakatimizda joriy qilinayotgan yangi ta’lim tizimi ya’ni inklyuziv ta’lim tizimining takomillashuvi, va bu ta’lim tizimi maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ham joriy qilinganligi, undagi muammo va takliflar, xalqaro tajribalar, inklyuziv ta’lim tizimini rivojlantirish maqsadida yangi qaror va farmonlar qabul qilinib, vazifalar yuklatilganligi haqida so’z boradi.

**Рюме:**

В данной статье рассматривается новая образовательная система, внедряемая в нашей стране, а именно совершенствование системы инклюзивного образования, и внедрение этой образовательной системы в дошкольных образовательных организациях, ее проблемы и предложения, международный опыт, в целях развития системы инклюзивного образования. Говорят, что приняты новые решения и указы, поставлены задачи.

**Summary:**

This article discusses the new system of education in our country, is the improvement of the system of inclusive education, and the introduction of this system of education in preschool education, the adoption of new decisions and decrees to develop the system of inclusive education, it is said that the tasks are loaded.

**Kirish.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son Farmoniga (muvofig O‘zbekistonda inklyuziv ta’limni rivojlantirish, alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini takomillashtirish hamda ularga ko‘rsatiladigan ta’lim xizmatlari sifatini yaxshilash bosh maqsad etib belgilandi. Ta’sis etilgan qarorlar va Davlat rahbarining e’tibori natijasida, Bugungi kunda yurtimizning ko‘plab viloyatlarida inklyuziv ta’lim joriy etilib, har bir maktab



Tyutor mutaxassislar bilan ta'minlanishi kerak ekanligi tasdiqlandi. Alohida yordamga muhtoj o'quvchilarning talim jarayonlarini sifatini yaxshilash maqsadida sohaga oid mutaxassis kadr (tyutor)lar faoliyat olib borishlari uchun qo'shimcha moddiy ba'za yaratildi. Bundan tashqari inklyuziv sinflar mavjud maktablarga moddiy-texnik ko'mak ko'rsatish ham belgilab qo'yildi.

Nima uchun turli darajadagi imkoniyatlarga ega bolalarni birgalikda o'qitilishi muhim? Bunday bolalarni birgalikda o'qitishning ijobiy tomonlari quyidagilar:

1. Maktab – bu faqatgina bilim maskani emas balki ijtimoiylashuv maskani. Ijtimoiy aspektlarda maktabning o'rni juda yuqori. Bolalar bir-biri bilan muloqot qilishni o'rganadilar, ular o'zaro munosabatlar tajribasiga ega bo'ladilar. Hech narsa shaxsning xatti-harakatlariga ma'lum bir ijtimoiy muhitda uzoq vaqt qolish kabi ta'sir qilmaydi. Bolani tengdoshlaridan izolyatsiya qilish orqali ular bilan muloqot qilishga o'rgatish mumkin emas. Aytish joizki, sog'lom bola tez ijtimoiylashuvi uchun ko'proq resurslarga ega. Alohida yordamga muhtoj bolalarda umumiy xulq-atvor ko'nikmalarini tezda o'rganish uchun kamroq imkoniyatlar mavjud. Shuning uchun bolalarni izolyatsiya qilish alohida yordamga muhtoj bolalarni jamiyatdan yanada begonalashishiga olib keladi. "Oddiy" bolalar orasida o'qish, aksincha, jamiyatga moslashish imkoniyatini beradi. Agar bolada rivojlanish buzilishi qanchalik og'ir bolsa, bunday bolalarni sog'lom bolalar bilan birgalikda o'qitish har ikki tomon uchun ham muammoli bo'lib qoladi, nogiron bolani o'qitish tuzatish muassasasi hali ham individual muassasadan yaxshiroqdir.

2. "Oddiy" bolalar uchun sinfdan alohida yordamga muhtoj o'quvchilarning bo'lishi maqsadga muvofiqdir, chunki bolalar zaiflarga nisbatan bag'rikenglik, ehtiyotkorlik va g'amxo'rlik tajribasiga ega bo'ladilar. Agar ushbu fikrni yanada rivojlantirish, kelajakda sog'lom bolalarning hamdard bo'lish va "zaiflarni"ni qo'llab-quvvatlash usulini shakllantirish voyaga etgan bolalarning yosh bolalar va keksa ota-onalar bilan munosabatlariga ijobiy ta'sir qiladi.

3. "Oddiy" bolalar va o'ziga xos xususiyatlarga ega bolalarni birgalikda o'qitish, rivojlantirish, ajoyib va hayirli jarayondir, garchi bu juda qiyin bo'lsa ham. Alohida yordamga muhtoj bolalarning o'zlari va ota-onalari uchun oila va uning jamiyatdagi ijtimoiy moslashuvi muvaffaqiyati juda katta quvonch keltiradi - xuddi shunday farzandining muvaffaqiyati hayotni normallashtirish yo'lidagi yutuqdir.

Jahonda ta'lim XXI asrning barqaror taraqqiyotini ta'minlovchi asosiy omil sifatida e'tirof etilib, Koreya respublikasida o'tkazilgan xalqaro ta'lim forumida 2030 yilgacha belgilangan konsepsiyada "Butun hayot davomida sifatli ta'lim



olishga imkoniyat yaratish” kabi dolzarb masalalarga bo‘lgan ehtiyoj yanada kuchaydi. Ayniqsa, inklyuziv ta‘lim sharoitida nogiron bolalarni pedagogik-psixologik qo‘llab-quvvatlash va o‘qitish usullarining yetarli darajada rivojlanmaganligi dolzarb muammodir.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta‘limtarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-sonli qarorida alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning salohiyatini rivojlantirish maqsadida inklyuziv ta‘lim tizimi joriy qilingan umumta‘lim maktablari tomonidan mazkur o‘quvchilar uchun ular va ularning ota-onalari (qonuniy vakillari) ishtirokida individual o‘quv dasturlari ishlab chiqilishi mumkinligi va individual ta‘lim dasturlarini o‘zlashtirishda maxsus pedagoglar va tyutorlar (yordamchi pedagog xodimlar) yaqindan ko‘maklashishi belgilangan. Undan tashqari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta‘lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida” 2021-yil 12-oktabrdagi 638-sonli qarorida inklyuziv ta‘lim sinflari va boshlang‘ich tayanch korreksion sinflardagi o‘quvchilarga individual ta‘lim dasturlarini o‘zlashtirishga yordam ko‘rsatish maxsus pedagoglar va tyutorlar (yordamchi pedagog xodimlar) tomonidan amalga oshirilishi o‘quvchilar bilan individual ta‘lim dasturlarini o‘zlashtirish, maxsus pedagoglar tomonidan ta‘lim jarayonidagi barcha darslarda, sinfdan tashqari va boshqa tadbirlarda amalga oshirilishi nazarda tutilgan. Ushbu belgilangan vazifalarni ijrosini ta‘limlash maqsadida Yaponiya xalqaro hamkorlik agentligi JICAning “Maktabgacha ta‘limda inklyuziv ta‘lim amaliyotini mustahkamlash” nomli loyihasi doirasida namunaviy individual ta‘lim rejasini ishlab chiqildi.

### **Mavzu yuzasidan xorijiy tajribalarni o‘rganilganligi.**

Bugungi kunda jahon miqyosida juda ko‘plab davlatlarda inklyuziv ta‘lim tizimini joriy qilish borasida amaliy tajribalar olib borilyapti. Buni bir necha jahon davlatlari misolida ko‘rib chiqamiz.

**Rossiyada** inklyuziv ta‘limning keng tarqalgan modeli ommaviy maktablardagi maxsus sinflardir. Ular quyidagi alohida yordamga muhtoj bolalar uchun tashkil etilgan:

- intellektida buzilishga ega bolalar uchun;
- psixik rivojlanishi sust bolalar uchun korreksiya sinflar;
- "Tavakkal" guruhi bolalar uchun (ta‘lim olishda, xulq-atvorda qiyinchiliklarga ega, sog‘ligi zaif);

- kompensatsiya qiluvchi ta'lim, pedagogik yordam, adaptatsiya va sog'lomlashtirish sinflari.

**Qirg'izistonda** inklyuziv ta'limni rivojlantirish tanlab olingan davlat maktablari va xususiy o'quv muassasalarida olib boriladi. Mutaxassislar guruhi ommaviy maktablarda ta'lim olish uchun imkoniyati cheklangan bolalarni tanlab oladi. Ularning bazasida o'qituvchilar, ota-onalar, mahalliy hokimiyat vakillari uchun 3 ta seminar, Ta'lim Vazirligi va mahalliy ta'lim departament vakillari uchun Respublika miqyosidagi konferensiya ham o'tkazilgan. Buyuk Britaniyada integratsiya jarayonida maxsus maktab o'quvchilari uchun alohida dastur ishlab chiqilgan. Maxsus maktab o'quvchilarining ma'lum qismi ommaviy maktabda ta'lim oladilar. Integratsiyani amalga oshirish uchun o'yin, jismoniy tarbiya, amaliy faoliyat turlari alohida tanlangan.

**Buyuk Britaniyada** integratsion ta'limni tashkil etish uchun maktablar rivojlanishida nuqsoni bor bolalar ta'limi uchun alohida mablag' bilan ta'minlanadi.

**Finlyandiyada** zaif ko'ruvchi bolalarning ko'p qismi ommaviy maktabda ta'lim oladi. Bunda maxsus maktab o'qituvchilari ommaviy maktab o'qituvchilariga katta tashkiliy yordam ko'rsatadilar. Xususan, ta'lim dasturlarini yaratishda Brayl va Vizual mobillik tizimida lokal kurslarni tashkil etishda, Brayl shrifti bilan yozilgan metodik qo'llanmalar, darsliklar, kitoblar va ovoz yozuvlari jamlangan kutubxonani tashkil etishda yordam beradilar.

**Shveysariyada** rivojlanishida nuqsoni mavjud bolalar ta'limining asosiy qismini ommaviy maktabda olishlarini ko'zda tutuvchi dastur mavjud. O'qituvchilar 4 kishidan ommaviy maktabning 3 ta o'qituvchisi va imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlash bo'yicha maxsus tayyorgarlikka ega 1 ta o'qituvchidan iborat guruh faoliyat ko'rsatadi. Maktab ma'muriyati 3 oyda bir marta ta'lim psixologiyasi doirasidagi mutaxassislar bilan bir marta uchrashib zarur tadbirlar va ota-onalar bn uchrashuvlar borasida maslahatlashib oladilar. Bunday yondashuv o'qituvchi mehnatini samaradorligini oshirish integratsiya sinflarida ta'lim metodlarini qo'llash sifatini oshirishda muhim omildir.

**Taklif.** Bolaning inklyuziv muhitda boshqalardan o'zini kam his qilmasligi, jismoniy imkoniyati cheklanganidan siqilmasligi uchun sharoit yaratish muhim. Stadionda boshqalar bilan yugurayotgan zaif ko'ruvchi bola kimgadir turtilib ketsa, boshqa bolalar uning ustidan kulishlari kerak emas. Agar kimdir masxara qiladigan bo'lsa, bola battar qobig'iga o'ralib oladi. Inklyuziv ta'lim joriy qilish tartiblarini nogironligi bo'lgan o'quvchilar va ularning ota-onalari, maxsus maktab-internatlari pedagoglari, nogironlar tashkilotlari vakillari bilan birgalikda ishlab chiqish kerak. Ular bilan to'g'ridan to'g'ri muhokamalar olib



borib, fikr va takliflari inobatga olinsa, me'yoriy hujjatlar amalda samaraliroq ishlaydi. «Tabib tabib emas, boshidan o'tgan tabib» deganlaridek, aynan nogironligi bo'lgan bolalarning o'zlari va ularning ota-onalari o'z vaziyatlarini yaxshi bilishadi va Xalq ta'limi vazirligi tomonidan ularning fikrlari, takliflari qabul qilinishi kerak. Imkoniyati cheklangan bolalar boshqalar singari bir xil sharoitda ta'lim olishi kerak, ularga darsliklar, o'quv qo'llanmalari yetmay qolishi kerak emas. Bunday bolalar ham sog'lom bolalar kabi qiynalmasdan maktabga borishi, kelajakda o'z yo'lini osonroq topishi mumkin. Inklyuziv ta'lim barcha uchun ta'lim sifatini yaxshilaydi;

Qanday bo'lmasin muammoni hal qilishga ijodiy yondashilsa, muvaffaqiyat ehtimoli yuqori bo'ladi.

***Mushak tonusini pasayishi.*** Agar bola sust befarq tez charchaydigan shu bilan birga diqqati tez tarqaladigan bo'lsa, birinchi, birinchi navbatda to'g'ri mebel tanlash kerak bola stol tagiga sirg'alib ketmasligi uchun. Bolaga dalda beruvchi so'zlar bilan birgalikda muntazam jismoniy tonusini oshirishga yordam beradi. Adaptativ jismoniy tarbiya mutaxassisi ma'lum bir usullar bilan bolaning asb sistemasini aktivlashtiruvchi mashqlardan o'rgatishi mumkin. Shuningdek, tanaffus paytida bolaning faol harakatlanishi, toza havodan nafas olishi va darslarni yaxshi ventilyatsiya qilinadigan xonalarda o'tkazilgani maqul. Motor steriotipni mustaqil yozuvni shakillantirishning dastlabki bosqichida “qo'lmaqo'l” usulida qo'llab quvvatlashdan foydalanish kerak, qo'shimcha ravishda qo'lini egish – barmoqlarni bukish mashqlarini o'rgating (“biz yozdik yozdik qo'llarimiz charchadi” kabi).

***Eshitish qobiliyati pasaygan bolalarda.*** O'qituvchining ovozi aniqroq bo'lishi kerak. Tyutor o'qituvchi ko'rsatmalarini og'zaki bo'lmagan tarzda tushuntirish uchun yaqin atrofda bo'lish tavsiya etiladi (nima qilish kerakligini imo-ishoralar bilan ko'rsatish). Tyutor ko'rsatmalarni audio fayl shaklida yozishi mumkin bola uyga borib tinch holatda tinglay olishi uchun. O'quv materiallari ko'proq ko'rgazmali qurollar bilan ifodalanishi kerak.

***Ko'rish qobiliyati pasaygan bolalarda.*** Ko'rgazmali qurollar yorqin va katta bo'lishi kerak. Tyutor sinifda sodir bo'layotganlar haqida ko'proq izoh berishi kerak. Agar bola o'zini xotirjam his qilsa, uni birinchi partaga o'tkazish kerak. O'quvchida ovoz kuchaytiruvchi moslama bo'lsa yanayam maqsadga muvofiqdir.

***Aqli zaif bolalarda.*** Materialning hajmi va bolaga beriladigan mashqlar hajmi kam bo'lishi kerak. Matnlar sodda va qisqa bo'lishi lozim. Ritmik va hissiyotga to'la axborotlarni (masalan she'rlar) eslab qolishi bir muncha oson.



Buning uchun dasturga muvofiq turli mavzulardagi she'rlar tanlanadi: "Yil fasillari", "Mening kunim", "Hayvonot bog'ida" va hokazo.

**Xulosa.** O'zbekistonda oilaviy sharoitidan qat'i nazar, barcha bolalar davlat umumta'lim maktablariga qatnaydi. Bu davlat tomonidan kafolatlangan. Faqat hohlovchilar o'z yonidan pul to'lab xususiy maktablarda o'qishi mumkin. Lekin imkoniyati cheklangan bolalarning boshqa sog'lom bolalar bilan teng sharoitda o'qiyotgani haqida maqtanib bo'lmaydi. Bu borada muammolar yetarligina:

- alohida ta'lim ehtiyoji bo'lgan bolalar o'qitiladigan ayrim ta'lim muassasalarida ular uchun to'siqsiz muhit va imkoniyatlar yaratilmaganligi;

- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar o'qitiladigan ta'lim muassasalari zarur adabiyotlar, metodik qo'llanmalar, turli kasblarga o'qitishga mo'ljallangan uskuna va jihozlar bilan to'liq ta'minlanmaganligi;

- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning bilim olish huquqi, inklyuziv ta'lim tizimining mazmun-mohiyati haqida jamoatchilik o'rtasida tushuntirish ishlarini olib borish yo'lga qo'yilmagani natijasida ota-onalar alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan farzandlarini umumta'lim muassasalarida o'qitishi mumkinligi haqida yetarli ma'lumotga ega emasligi;

- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni inklyuziv ta'limga jalb qilish bilan bog'liq muammolarni hal etish masalalariga mahalliy ijro hokimiyati organlari tomonidan yetarli e'tibor qaratilmaganligi;

- pedagogika yo'nalishidagi OTMLar o'quv dasturlariga inklyuziv ta'lim berish metodikasiga oid fanlar kiritilmagan yoki endi o'qitila boshlanganligi;

- inklyuziv sinf ichidagi o'qituvchi va o'quvchilarning psixologik tayyor emasligi. Bunday vaziyatlarda nogironligi bo'gan o'quvchini kamsitish hollari kuzatilishi;

- pedagogika va metodika fanlariga oid darsliklarda inklyuziv ta'lim dasturlari kiritilmaganligi, shuningdek, bo'lajak pedagoglarning alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar jalb qilingan ta'lim muassasalarida amaliyot o'tamayotgani ularning kasbiy tayyorgarlik sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Bundantashqari, o'qituvchilarni ham ruhan tayyorlab olish kerak. Maktablarda o'qituvchilar qo'pincha lider o'quvchilar bilan ishlashga o'rgangan. Ular o'qituvchini tez ilg'aydi, tushunadi va yaxshi natijalar ko'rsata oladi. Sog'lom bolalar bilan bir maktabga boradigan imkoniyati cheklangan bolaning esa lider bo'la olish ehtimoli kam, sababi ular eshitishga, ko'rishga va tushunishga boshqalardan ko'ra ko'proq kuch sarflashi kerak bo'ladi. Shu narsalarni o'qituvchilar to'g'ri qabul qila olishi va ular bilan yaxshi munosabatni yo'lga qo'ya olishi zarur. Buning uchun esa avvalo ularning o'zi tayyor bo'lishi kerak. Agar umuman imkoniyati cheklangan bolaga dars o'tmagan o'qituvchining



sinfiga shunday bolalar borsa, u dastlab bola tilini tushunmasligi, uning qiyin o‘zlashtirishini qabul qila olmasligi mumkin. Shuning uchun o‘qituvchilarni imkoniyati cheklangan bolalar bilan ham ishlashga o‘rgatish lozim.

Inklyuziv sinfda nogironligi bo‘lgan bolalar soni uchtdan oshmasligi va ular bir xil tashxisli bo‘lishi, Sinfdagi umumiy bolalar soni esa 30tadan oshmasligi kerak.

#### Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida qarori PQ-4312 08.05.2019
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining alohida ta’lim olish ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora – tadbirlari to‘g‘risidagi qarori -4860 13.10.2020
3. Д.З. Ахметова, З.Г. Нигматов, Т.А. Челнокова, Г.В. Юсупова и др. Педагогика и психология инклюзивного образования: учебное пособие . – Казань, 2013
4. Буторина, О. Г. Об опыте воспитания и обучения детей с ограниченными возможностями здоровья / О. Г. Буторина // Воспитание школьников, 2010
5. Инклюзивная практика в дошкольном образовании. Современный образовательный стандарт / Т. В. Волосовец, А. М. Казьмин, В. Н. Ярыгин. – М.:Мозаика-Синтез, 2011. – 144 с.
6. D.S.Qaxarova “ Inklyuziv ta’lim texnologiyasi” o‘quv va metodik qo‘llanma 2014-yil.